

**“TA’VIZ UL-O SHIQIN” VA FUZULIY “DEVON”I DEBOCHASIDAGI
QIT’A, MASNAVIYLAR SHARHI**

*Ergasheva Mashhura Sa’dulla qizi
Sharof Rashidov nomidagi Samarkand davlat universiteti, Adabiyotshunoslik: o’zbek
adabiyoti yo’nalishi 2-kurs magistranti, Samarkand.
Ergashevamashhura75@gmail.com*

Annotatsiya: Ogahiy devoni debochasida keltirilgan qit’alar mazmun jihatdan Fuzuliy devoni debochasidagi qit’alar bilan uyg‘unligi mavjud. Nazmga oid falsafiy qarashlari esa har ikki ijodkorning ruhiy olami silsilasiga aloqador.

Kalit so‘zlar: “Ta’viz ul-oshiqin”, debocha, Fuzuliy devoni, so‘z xususida, nazm, masnaviy, qit’ a, o‘xshatishlar.

Annotation: The verses presented in the preface of the Ogahi Divan are in content harmony with the verses in the preface of the Fuzuli Divan. Philosophical views on poetry are related to the series of the spiritual world of both artists.

Key words: "Ta'viz ul-ashiqin", preface, Fuzuli's divan, in terms of words, verse, masnavi, continent, similes.

Аннотация: Стихи, представленные в предисловии «Огахи дивана», по содержанию гармонируют со стихами предисловия «Физулинского дивана». Философские взгляды на поэзию связаны с рядом духовного мира обоих художников.

Ключевые слова: «Тавиз ул-ашикин», предисловие, диван Физули, в словесном плане, стих, масnavи, континент, сравнения.

Ogahiy lirkasini o‘rganar ekanmiz bevosita Fuzuliy lirkasi uslubiga hamohang ekanligiga guvoh bo‘lamiz. Jumladan, ikki zabardast shoir devonida keltirilgan g‘azal, qit’ a, masnaviyilar qiyoslash orqali bunga guvoh bo‘la olamiz. Fikrimizning dalili o‘laroq ozar diyorining asl farzandi Muhammad Fuzuliyning 1968-yilda nashr etilgan ikki jildlik asarlarining birinchi jildi – “Devon”i debochasida keltirilgan qit’alarning shakl, ma’no uyg‘unligi, tasviriy ifodaning jimjimadorligi, ramziylik, tasavvufiy g‘oyalar singdirilganligi bilan Ogahiy “Ta’viz ul-oshiqin” devoni debochasidagi qit’alar uyg‘unligi bor. Fuzuliy qit’asi:

Sahni latifu dar vay xo‘bon nishasta saf-saf.

Diydori shon muborak hamchun suturi mus’haf.

Xurshudlavh chun mah har yak nihoda dar pesh.

Bargi kitob chun gul har yak girifta dar kaf.

Qit’aning ma’nosи, latif bir sahn, unda go‘zallar, saf-saf o‘tiribdilar. Ularning ko‘rinishi Qur’on satrlari kabi go‘zaldir. Har birisi lavha quyoshini oy kabi o‘z qarshisiga qo‘ymish, kitob varag‘ini gul kabi qo‘lida tutmishdir. Fuzuliy ushbu qit’asi bilan shuni aytmoqdaki, “Devon”ida keltirilgan g‘azallari, qit’alari, ruboiylarining go‘zallarga qiyosi

va devon tartibini saf-saf turishlariga o‘xshatishi, hatto ularning shakl-shamoili Qu’ron satrlariga o‘xshatilib ma’no ko‘chirishi shoir ijodining murakkab qirralarini ochadi. Ogahiy qit’asi:

Na toqat qolg’oy andoq zarrag‘akim,
Anga nurini solmish mehri rahshon.
Na qolg‘oy ixtiyor ul qatrag‘akim,
Oni darbar qilibdur mavji ummon.

Ushbu qit’ada esa faqir saodat va davlat xitobini eshitgach, faqirda aslo ibo va ittifoq tuzishdek jur’at va uzr deyishga quvvat qolmaganini aytadi. Demak, ikki qit’ a ham mazmumiy jihatdan tasavvufiy unsurlardan oziqlanganligini ko‘rishimiz mumkin.

Har ikki ijodkorning devonidagi debochalarni solishtirar ekanmiz, so‘z, she’r xususida yozganlari badiiy jihatdan xilma-xillikni kasb etadi. “Borcha musavvadalaridagi va bayozlardagi va o‘zga yerlardagi parishon bo‘lgan she’rlaringni jam’ etib, devon suratida tartib bergil va onga debocha ham yasob so‘ngra aytilg‘on ash’oringni dog‘i hamul devonda o‘z mahalida raqam silkiga gavhar yanglig‘ tergil. Nedinkim kishidin to qiyomatgacha boqi qoloturg‘on yodgor va farzandi saodatosor yaxshi so‘zdurkim, onga zamon havodisining ofoti zarari aslo yetushmas va davron inqilobining g‘ubori asari hargiz ahvoli boshiga tushmas”¹. Ogahiy so‘z haqida yana shuni davom ettiradiki, so‘zning martabasi nihoyatda ulug‘ hamda so‘z ahli(ijodkorlar)ning hamisha aziz va arjumand ekanligini aytadi va fikrining isboti o‘laroq she’r haqidagi masnaviysini keltiradi:

Bo‘lubdur she’r yaxshilar shiori,
Jahonda to qiyomat yodgori.

Bilamizki, butun olam birgina Alloh tomonidan aytilgan kalom “yaral”(arabchasi “kun”) so‘zi orqali paydo bo‘lgan edi. Ushbu baytning ikkinchi misrasida esa qiyomat yodgori sifati so‘zning ulug‘vorligiga qo‘srimcha ma’no yuklagan.

Kishiga she’rdin yo‘q yaxshi farzand,
Ki, doyim boqi ul farzandi dilband.

Quyidagi bayt orqali esa, kishi uchun eng yaxshi farzand she’r ekanligi, ushbu misrani badiiy takomilini oshiruvchi ikkinchi misrasi orqali farzanddek aziz, dil tortuvchi, har on abadiyligini ta’kidlaydi. Fuzuliy esa bunday “ipga terilgan durlar”ni bayt bilan ochiqlaydi:

She’r bir mash’uqdur, husni iborat zevari,
Jonu dildan nozanin mahbublar oshiqlari.

Shoir bu yerda she’rni husni bezaklarga ziynatlangan mash’uqqa qiyoslanishi, ijod ahli esa, ularga ich-ichidan oshiqligini ta’kidlaydi. Ko‘ryapmizki, har ikki ijodkorning she’r haqida ajoyib topilmalari Ogahiyning Fuzuliy devonidan oziqlanganliginidan dalolatdir.

¹ Ogahiy M. Tanlangan asarlar. Birinchi jild. - T.: G’afur G’ulom nomidagi nash, 1971. 45-bet.

“Lojaram andalibi shaydo kibi sarmast o‘ldim va ul gullarga qarshi tarannum etmaga iste’dodi fitratdan ruxsat bo‘ldim. Ufuqi tab’imda hiloli mavzuniyat tulu’ edib, ul xurshidvashlardan iqtibosi nuri shavq etmakim kun kundan bir g‘oyatda mutazoyid o‘ldiki, oz muddatda ashu’ai anvari nazmimla cho‘q shaharlar va viloyaglar do‘ldi”². Fuzuliy nazmi juda ko‘p shaharlarni egallagani, yuqorida keltirgan fikriga quyidagi qit’asini keltiradi:

Shohidi nazm saropardai quvvatda ekan,
Qildi ul bazm ko‘rib, fe’li fazosina xirom.
G‘unchalar ko‘nglini ochmog‘a latoyif birla,
Bulbula verdi sabo ruxsati taqriri kalom.

Ogahiy devoni debochasining so‘ngida she’rni yana alqalaydi: “...bas she’r bir ne’mati zamondurkim tangri taolo oni har kishiga ato qilmomishdur va oni aytmoq hunari har kimning qo‘lidin kelmamishdur va she’r shoirning izzat va davlat ne’matin hosil qilmoqig‘a sabab, balki ikki dunyo manzilati saodatig‘a vosil bo‘lmog‘ig‘a boisdur”³.

Fuzuliy devonidagi debochada so‘zni falsafiy ruhda “savalaydi”:

Marsimu hussodil – kalomi azimatun
Basiratuhum mahzuz – zalolati fil malo.
Tazyiu murootus – sanoei baynahum
Tusaddada minhojal – visuli ilal – ulo.

Mazmuni esa so‘z hasadchilarining gunohi kattadir. Ularning basirat (ko‘ra oluvchi) ko‘zları borlik olamida zalolat (adashishga boshlovchi)dir. San’atkorlik huquqi ular orasida bitadi. Ular yuksaklikka to‘g‘ri olib boruvchi yo‘lni bekitadilar.

Muxtasar qilib aytganda, Fuzuliy devoni debochasida o‘rin olgan masnaviy, qit’a, baytlar mazmunan ham tasavvufiy, ham dunyoviy ilm bo‘yicha tadqiq qilinsa, ikki jihatdan ham kalom, nazmnинг beqiyos martabasini ko‘rsatib beradi. Ogahiy ham she’r haqida o‘zining falsafiy dunyoqarashi bilan Fuzuliyga ergashgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Negaki, birgina devon debochasi emas, balki, g‘azallarida ham o‘xhash jihatlari ko‘p ekanligini sezishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Fuzuliy M. Devon. Tanlangan asarlar. Ikki jildlik.-T.: G‘afur G‘ulom nomidagi badiiy adabiyot nash.- 1968.
2. Haqqul I. Tasvvuf va Ogahiy she’riyati/Hayot, adabiyot va abadiyat. –T.: Tafakkur.-2019.
3. Ogahiy M. Devon. Tanlangan asarlar. Olti jildlik.-T.: G‘afur G‘ulom nomidagi badiiy adabiyot nashr.-1971.
4. Rajabova S. Ogahiy g‘azallari tahlili. “Til va dabiyot ta’limi” jurnali. 2009. 10-son.

² Fuzuliy M. Tanlangan asarlar. Birinchi jild. -T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nash, 1968. 19-bet.

³ Ogahiy M. Tanlangan asarlar. Birinchi jild. -T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nash, 1971. 47-bet.